

INTERNET ORQALI QONUNIY DAROMAD

Salayev Bahovaddin Safarbayevich

1-darajarli yurist.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasi,

Ohangaron tuman adliya bo'limi boshlig'i.

salayev1991@icloud.com Telefon raqami: +998 91-770-32-01.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20744110>

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet tarmog'i orqali qonuniy daromad olish faoliyatini rasmiylashtirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, o'zini o'zi band qilgan shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor maqomlarini olish tartibi, ularning afzalliklari, soliqqa tortishning soddalashtirilgan mexanizmlari hamda onlayn ro'yxatdan o'tish imkoniyatlari yoritilgan.

Shuningdek, elektron tijorat faoliyatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish va sotuvchilarning asosiy majburiyatlari ko'rib chiqilgan.

Maqolada internet orqali daromad topayotgan fuqarolar uchun faoliyatni qonuniylashtirishning amaliy ahamiyati hamda uni amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: internet orqali daromad, elektron tijorat, o'zini o'zi band qilgan shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, onlayn biznes, tadbirkorlik faoliyati, soliqqa tortish, professional daromad solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar, raqamli xizmatlar, my.gov.uz, elektron savdo.

Abstract. This article examines the legal framework for earning income through the Internet and formalizing online business activities in Uzbekistan. It analyzes the procedures for obtaining the status of a self-employed person and an individual entrepreneur, highlighting their legal advantages, simplified taxation mechanisms, and digital registration opportunities. The article also discusses the rights and obligations of participants in e-commerce, including consumer protection, personal data security, and the responsibilities of online sellers.

Furthermore, practical recommendations are provided for individuals seeking to legalize their online activities and conduct business in compliance with applicable legislation. The study emphasizes the importance of formalization as a tool for ensuring legal protection, financial stability, and sustainable business development in the digital economy.

Keywords: Internet income, e-commerce, self-employed person, individual entrepreneur, online business, entrepreneurship, taxation, professional income tax, turnover tax, consumer protection, personal data protection, digital services, electronic registration, digital economy, legal regulation.

Kirish: Raqamli imkoniyatlar va faoliyatni qonuniylashtirishning ahamiyati Bugungi kunda ko'pchilikning cho'ntagida kichik bir "ofis" – smartfon mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kiyim-kechak sotish, masofaviy dizayn, tarjima yoki maslahat xizmatlarini ko'rsatish endi yangilik emas. Biroq, onlayn daromad topayotgan fuqarolar ko'pincha ushbu faoliyatni qonuniylashtirish murakkab va uzoq vaqt talab qiladigan jarayon deb hisoblaydilar.

Aslida, zamonaviy qonunchilik onlayn faoliyatni qonuniylashtirishni qog'ozbozliksiz, uydan chiqmasdan va qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini beradi. Faoliyatni "yashirin" yuritishdan voz kechib, uni rasmiylashtirish bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi: rasmiy daromad mavjudligi banklardan qulay shartlarda kredit yoki ipoteka olish imkonini beradi, ish staji to'planadi va kelajakda pensiya ta'minoti shakllanadi. Shuningdek, davlat tadbirkorlik faoliyatini himoya qiladi, bu esa hamkorlar yoki xaridorlar bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni sud orqali hal qilish huquqini kafolatlaydi.

Qaysi huquqiy shaklni tanlash maqsadga muvofiq? Tadbirkorlikni boshlashda ko'pchilik darhol yuridik shaxs (masalan, MChJ) ochish kerak deb xulosa chiqaradi. Aslida, oddiy fuqarolar va kichik onlayn biznes uchun qonunchilikda ikkita eng qulay va tezkor shakl nazarda tutilgan.

O'zini o'zi band qilgan shaxs Xizmat ko'rsatish (masalan, SMM-mutaxassis, dasturchi, repititor, tarjimon) yoki uy sharoitida o'z qo'li bilan tayyorlangan mahsulotlarni (masalan, hunarmandchilik buyumlari, qandolatchilik mahsulotlari) sotish bilan shug'ullanuvchilar uchun ushbu maqom eng maqbul hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi 634-sonli "O'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga asosan, ro'yxatdan o'tish jarayoni tijorat banklarining mobil ilovalari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali amalga oshiriladi. Davlat xizmatlari markaziga borish talab etilmaydi. Jarayon 5–10 daqiqa davom etadi va ariza topshirilgan zahotiyoyq shaxs avtomatik ravishda ro'yxatga olingan hisoblanadi.

Yakkatartibdagi tadbirkor (YATT) Tayyor tovarlarni xarid qilib, ustiga foyda qo'yib sotish (onlayn-do'konlar, marketplace'larda savdo) yoki yordamchi xodimlarni yollash rejalashtirilganda YATT maqomini olish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-sentyabrdagi 763-sonli "Yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga asosan, YATT maqomini olish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali onlayn ariza to'ldiriladi.

Qonunchilikka ko'ra, davlat ro'yxatidan o'tkazish muddati ariza topshirilgandan so'ng 1 ish kuni (ko'pincha avtomatik tarzda bir necha soat ichida) amalga oshiriladi va davlat boji undirilmaydi. Ro'yxatdan o'tganlik haqidagi ma'lumotnoma elektron shaklda shaxsiy kabinetga yuklanadi va u qog'oz shaklidagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega.

Raqamli hisobotlar: Mikro-biznes uchun yengilliklar Tadbirkorlikni boshlayotgan fuqarolarni ko'pincha murakkab buxgalteriya va hisobotlar qo'rqitadi. Qonunchilikda kichik biznes subyektlari uchun maxsus yengilliklar yaratilgan.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarga umuman alohida soliq hisobotini (deklaratsiya) topshirish talab qilinmaydi. Qat'iy belgilangan soliq tanlanganda, to'lov oylik rejimda amalga oshiriladi. "Professional daromad soligi" tanlanganda esa, xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilganda tizim avtomatik ravishda soliq miqdorini hisoblab, ushlab qoladi va qolgan qismini hisob raqamiga o'tkazib beradi. Barcha jarayonlar raqamli tizim tomonidan avtomatik bajariladi.

YATT va mikrofirmalar uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining soddalashtirilgan soliqqa oid qoidalariga ko'ra, yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan subyektlar uchun "aylanmadan olinadigan soliq" rejimi qo'llaniladi.

Bunday holatda, murakkab buxgalteriya hisobotlari talab qilinmaydi. Tadbirkor tomonidan faqat choraklik yoki yillik soddalashtirilgan deklaratsiya topshirish kifoya bo'ladi. Ushbu jarayon ham to'liq onlayn (my.soliq.uz) tizimi orqali amalga oshiriladi.

Onlayn savdoda huquq va majburiyatlar Internet orqali savdo qilish O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu sohadagi eng muhim qoidalar quyidagilardan iborat:

14 kunlik qaytarish kafolati: Qonunning 13-moddasiga ko'ra, iste'molchi sifatli bo'lgan, lekin o'lchami, fasoni, rangi yoki komplektatsiyasi to'g'ri kelmagan oziq-ovqat bo'lmagan tovarni, agar u iste'mol qilinmagan bo'lsa va uning tovar ko'rinishi saqlanib qolgan bo'lsa, sotib olingan kundan e'tiboran 14 kun ichida almashtirish yoki pulini qaytarib olish huquqiga ega. Amaliy jihatdan, onlayn-do'kon egasi tomonidan ushbu qoidani sahifada ochiq yozib qo'yish nafaqat qonuniy majburiyat, balki xaridor ishonchini oshiruvchi omil hisoblanadi.

To'liq ma'lumot berish majburiyati: Sotuvchi tovar haqida ishlab chiqaruvchi, narx, kafolat muddati, yetkazib berish shartlari va to'lov usullari haqida to'liq ma'lumot berishi shart. Tovar kafolat muddati ichida nosoz chiqqan taqdirda, sotuvchi uni bepul ta'mirlash, almashtirish yoki pulini qaytarish majburiyatini oladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: Xaridorning ismi, telefon raqami va manzili kabi ma'lumotlari "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq himoyalanaadi. Sotuvchi ushbu ma'lumotlarni xaridorning roziligisiz uchinchi shaxslarga tarqatish huquqiga ega emas.

Xulosa: Faoliyatni rasmiylashtirish uchun amaliy qadamlar Tadbirkorlikni qonuniylashtirish – bu faqat davlat oldidagi majburiyat emas, balki o'z mehnatini qadrlash va biznesni himoya qilish vositasidir. Faoliyatni rasmiylashtirish uchun quyidagi 5 qadamlik yo'riqnomadan foydalanish mumkin:

Faoliyat turini aniqlash: Xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa "O'zini o'zi band qilgan shaxs", tovar savdosi qilinishi rejalashtirilayotgan bo'lsa "YATT" maqomi tanlanadi.

Onlayn ro'yxatdan o'tish: O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida bank ilovasi orqali 5 daqiqada, YATT sifatida esa my.gov.uz portali orqali 1 ish kuni ichida ariza topshiriladi.

Soliq rejimini tanlash: Hisobotlarni soddalashtirish maqsadida "Professional daromad solig'i" yoki "aylanmadan olinadigan soliq" rejimlaridan biri tanlanadi.

To'lov tizimlarini ulash: Xaridorlarga qulaylik yaratish va moliyaviy oqimni shaffof qilish uchun tijorat banklarida tadbirkorlik hisob raqami ochiladi va to'lov tizimlari ulanadi.

Hujjat almashinuvni yo'lga qo'yish: Hamkorliklar uchun oddiy yozma shartnomalardan foydalanish va barcha to'lovlarni chek yoki elektron kvitansiya orqali amalga oshirish nazorat qilinadi.